

JAZO TAYINLASHDA ADOLAT PRINSIPINI TA'MINLASHNINING HUQUQIY VA AMALIY MUAMMOLARI

**Nabijonova Kumushxon
Po'latova Nilufar**

*Qarshi Xalqaro universiteti Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi
yo'nalishi 3- bosqich talabalari. Contact: +998946246004 ; +998939876504
Email: @nabijonovakumushxon2005.gmail.com; lilyakbarova777@gmail.com*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada jazo tayinlashda adolat prinsipini ta'minlashning huquqiy va amaliy muammolari ilmiy jihatdan chuqur tahlil qiladi. Tadqiqotda adolat tushunchasining normativ-huquqiy mazmuni bilan uning real sud amaliyotidagi ifodasi o'rtasidagi tafovudlar ochib beriladi. Xususan, qonunchilikda belgilangan umumiy mezonlar natijasida ayrim hollarda bir xil turdagi jinoyatlar uchun turlicha jazo tayinlanishi muammosi yuzaga kelishi asoslab beriladi.*

Shuningdek, ishda jazoni individuallashtirish zarurati bilan huquqiy aniqlik va barqarorlik talablari o'rtasidagi muvozanat masalasi yangi yondashuv asosida tahlil qilinadi. Sud amaliyotida subyektiv va boshqa omillar yuqoriligi adolat prinsipining to'liq ro'yobga chiqishiga to'sqinlik qiluvchi omillar sifatida ko'rsatib o'tiladi.

Tadqiqot natijasida jazo tayinlashda ayblanuvchining qilgan qilmishiga yarasha jazolanishi hamda manbalarda keltirilgan prinsiplar qat'iy lashtirilishi va aynan adolat prinsipini kuchaytirilishi haqida xulosa beriladi.

Kalit so'zlar: *prinsiplar, adolat prinsipi, jazo, jinoyat kodeksi, sud amaliyoti, huquqiy oqibat, subyektiv, jazo tayinlash, ayblanuvchi, jabrlanuvchi, individuallashtirish, zaruriy mudofaa, hukm, alternativ, pretsedent, "mativatsiya standarti", "adolat auditi", "adolat indeksi", mexanizim, plenium, normativ mezon.*

Annotation: *This article provides an in-depth scientific analysis of the legal and practical problems of ensuring the principle of justice in sentencing. The study reveals the discrepancies between the normative legal content of the concept of justice and its expression in actual judicial practice. In particular, it substantiates that, as a result of the general criteria established in legislation, in some cases there arises a problem of assigning different punishments for crimes of the same type.*

The paper also analyzes, based on a new approach, the issue of balancing the necessity of individualizing punishment with the requirements of legal certainty and stability. It is noted that the high level of subjective and other factors in judicial practice acts as an obstacle to the full realization of the principle of justice.

As a result of the research, a conclusion is drawn on the need to impose punishment proportionate to the act committed by the accused, as well as to strengthen the principle of justice by reinforcing the principles established in legal sources.

Аннотация: *В данной статье научно глубоко анализируются правовые и практические проблемы обеспечения принципа справедливости при назначении*

наказания. В исследовании раскрываются различия между нормативно-правовым содержанием понятия справедливости и его выражением в реальной судебной практике. В частности, обосновывается, что в результате установленных законодательством общих критериев в некоторых случаях возникает проблема назначения различных наказаний за одинаковые по виду преступления.

Также в работе на основе нового подхода анализируется вопрос баланса между необходимостью индивидуализации наказания и требованиями правовой определённости и стабильности. Указывается, что высокий уровень субъективных и иных факторов в судебной практике является препятствием для полной реализации принципа справедливости.

По результатам исследования делается вывод о необходимости назначения наказания соразмерно совершенному деянию обвиняемого, а также об усилении принципа справедливости путём ужесточения закреплённых в источниках принципов.

KIRISH

Jazo tayinlash jinoyat huquqining eng muhim bosqichlaridan biri bo'lib, u orqali davlat tomonidan sodir etilgan huquqbuzarlikka nisbatan munosabat bildiriladi. Ushbu jarayon nafaqat jinoyat uchun javobgarlikni belgilash, balki jamiyatda huquqiy tartibni mustahkamlash va qayta jinoyat sodir etilishining oldini olishga qaratilgan.

Mazkur mavzuning dolzarbligi shundaki, amaliyotda jazo tayinlashda turli yondashuvlar kuzatilishi, ayrim hollarda esa qarorlar o'rtasida tafovutlar yuzaga kelishi mumkin. Bu esa huquqiy tizimda yagona mezonlarni yanada takomillashtirish zaruratini yuzaga keltiradi.

Shu nuqtai nazardan, jazo tayinlash jarayonini ilmiy va huquqiy jihatdan o'rganish, uning amaliy qo'llanilishidagi muammolarni aniqlash hamda takomillashtirish yo'llarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

ASOSIY QISM

Jazo tayinlashda adolat prinsipini ta'minlashning huquqiy va amaliy muammolari nimalarda ko'rinadi?

Avvalo, jazo tayinlash nima ekanini bilib olishimiz zarur. Jazo tayinlash - bu O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksining 16-moddasida keltirilganidek: Jinoyat sodir etishda aybdor bo'lgan shaxsga nisbatan sud tomonidan hukm qilish, jazo yoki boshqa huquqiy ta'sir chorasi qo'llanilishida ifodalanigan jinoyat sodir etishning huquqiy oqibatidir.

Oddiy til bilan aytganda har qanday qonunbuzarlik uchun jazo muqarrarligi va javobgarlikka tortilishi tushuniladi. Bundan tashqari jazo tayinlashda qonuniylik, fuqarolarning qonun oldida tengligi, demokratizm, insonparvarlik, odillik, ayb uchun javobgarlikning muqarrarligi prinsplarga asoslanadi¹.

Jazo tayinlash jarayonida adolat prinsipi markaziy o'rinni egallaydi, chunki aynan shu prinsip orqali jinoyat va jazo o'rtasidagi muvozanat ta'minlanadi. Adolat – bu faqat

qonun normasiga rioya qilish emas, balki har bir ish bo'yicha haqiqiy, asosli va ichki mantiqqa ega qaror qabul qilishdir.

Agar jazo jinoyatning og'irligiga mos kelmasa, u holda u na profilaktik, na tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. Jazo tayinlashda adolat prinsipini ta'minlashga to'sqinlik qilayotgan asosiy huquqiy muammolardan biri — normativ mezonlarning umumiy va noaniq ifodalanganligidir. Qonunchilikda jazo tayinlashda inobatga olinadigan holatlar ko'rsatilgan bo'lsa-da, ularning aniq chegaralari va ustuvorlik darajasi belgilab qo'yilmagan. Natijada bir xil holatlar turlicha talqin qilinib, adolat prinsipi izchil amalga oshirilmay qolmoqda. Ikkinchi muammo — jazo individuallashtirish va tenglik prinsipi o'rtasidagi huquqiy muvozanatning yetarlicha tartibga solinmaganligi.

Qonun bir tomondan har bir ishni alohida yondashuv asosida ko'rishni talab etsa, boshqa tomondan barcha fuqarolar qonun oldida teng ekanligini belgilaydi. Ammo ushbu ikki talab o'rtasidagi chegaraning aniq belgilanmaganligi sud amaliyotida qarama-qarshi natijalarga olib keladi. Bu esa adolat prinsipining mohiyatiga putur yetkazadi. Uchinchi muammo — sud qarorlarini asoslashga qo'yilgan talablarning yetarli darajada kuchli emasligi. Amaldagi normalarda hukmni asoslash majburiyati mavjud bo'lsa-da, uning sifati va chuqurligiga nisbatan aniq mezonlar belgilanmagan. Natijada ayrim qarorlar umumiy iboralar bilan cheklanib, nima sababdan aynan shu jazo tanlangani yetarlicha ochib berilmaydi. Bu esa qarorning adolatli ekanligini baholashni qiyinlashtiradi.

Yana bir muhim jihat — sud amaliyotini yagona standartlarga soluvchi mexanizmlarning yetarli emasligi. Oliy sud plenum qarorlari va tushuntirishlari mavjud bo'lsa-da, ular barcha holatlarni qamrab olmaydi va majburiy qo'llanilishi har doim ham bir xil darajada ta'minlanmaydi. Natijada hududlar kesimida jazo tayinlashda sezilarli tafovutlar yuzaga keladi, bu esa adolat prinsipining buzilishiga olib keladi. Shuningdek, yengillashtiruvchi va og'irlashtiruvchi holatlarning huquqiy tartibga solinishi ham muammoli jihatlarga ega. Qonunda ularning ro'yxati berilgan bo'lsa-da, ularning o'zaro nisbatini aniqlash va jazo tayinlashga ta'sir darajasini belgilash mexanizmi aniq emas. Shu sababli bir xil holat turli sudyalardan turlicha baholanib, yakuniy jazo ham farqlanadi. Bundan tashqari, alternativ jazolarni qo'llash bo'yicha aniq mezonlarning yetishmasligi ham adolat prinsipiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan jazolarni qo'llash imkoniyati mavjud bo'lsa-da, qaysi holatda aynan qaysi jazo ustuvor bo'lishi kerakligi yetarlicha aniqlashtirilmagan. Bu esa sudyaga haddan tashqari keng ixtiyor berib, subyektivlik xavfini oshiradi. Yuqoridagi muammolar shuni ko'rsatadiki, jazo tayinlashda adolat prinsipining to'liq ta'minlanishi uchun faqat umumiy qoidalar yetarli emas. Aniq mezonlar, yagona standartlar va kuchli asoslash talablari zarur. Aks holda, qonun mavjud bo'lsa-da, uning qo'llanishi turlicha bo'lib qolaveradi va bu holat adolatning izchil ta'minlanishiga to'sqinlik qiladi.

Jazo tayinlashda adolat prinsipini ta'minlashning amaliyotda buzulishi sifatida 2017-yil yanvar oyida sodir bo'lgan jinoyatni oshkor qilishdagi xato va kamchiliklar, adolat mezonini buzulishi, qonunning noto'g'ri talqin qilinishi aynan o'z shahrimizda, ko'z o'ngimizda vujudga kelgan². Ya'ni jabrlanuvchi sifatida ko'rilayotgan A ismli shaxs qasddan rejalashtirilgan guruhij tajovuzga uchragan lekin ayblanuvchi B ismli shaxs sudning adolat prinsiplariga noto'g'ri tayanishi oqibatida qilmishiga qaraganda kamroq muddatga ozodlikdan mahrum etilgan. Bundan ko'rinib turibdiki, jazo tayinlashdagi prinsiplar o'z holidan to'g'ri qo'llanilmayotgani, sud jarayonida sudyalarning aynan bir tarafkama xulosasi, ba'zi hollarda ayrim qo'shtirnoq ichidagi mansabdor shaxslar haddan tashqari mol dunyoga ro'ju qo'ygani bunga misol bo'la oladi.

Maqolada keltirilayotgan muammolarni yechimi sifatida o'z shaxsiy fikrimizni bayon qiladigan bo'lsak, birinchi o'rinda hayotiy misolda keltirilgan hududiy muammo bo'yicha "Adolat indeksi"ni joriy etish zarur. Bunda har bir hudud bo'yicha jazo tayinlashdagi farqlar statistik baholanadi. Juda katta tafovut bo'lsa nazorat kuchaytiriladi. Ikkinchi yechim – sudyalarning uchun "Adolat auditi" tizimi. Bu vaqti-vaqti bilan sud qarorlari maxsus komissiya tomonidan tahlil qilinadi. Maqsad – bir xil holatlarda keskin farqlar bor yo'qligini aniqlash. Oxirgi yechimimiz esa "Mativatsiya standarti"ni kuchaytirish ya'ni har bir hukmda jazo nima uchun aynan shu miqdorda tayinlangani aniq matematik va huquqiy asos bilan yozilishi majburiy qilinadi(faqat umumiy iboralar emas).

XULOSA

Jazo tayinlashda adolat prinsipini ta'minlash jinoyat huquqining eng muhim va murakkab vazifalaridan biri bo'lib, u faqat qonun normalarini qo'llash bilan cheklanmaydi, balki har bir ishda mutanosiblik, tenglik, insonparvarlik va asoslanganlikni ta'minlashni talab etadi. Ilmiy tahlillar shuni ko'rsatadiki, adolat prinsipi jazo va jinoyat o'rtasidagi muvozanatni saqlovchi asosiy huquqiy mezon sifatida namoyon bo'ladi.

Tadqiqot jarayonida aniqlanganidek, huquqiy va amaliy muammolar asosan normativ mezonlarning noaniqligi, sud amaliyotining bir xil emasligi, sudya ixtiyoriy vakolatlarining kengligi hamda qarorlarni asoslash darajasining yetarli emasligi bilan bog'liq.

Bu holatlar jazo tayinlashda hududlar va ishlar kesimida tafovutlarni keltirib chiqarib, adolat prinsipining izchil amalga oshishiga to'sqinlik qiladi. Amaliyot tahlili esa shuni ko'rsatadiki, bir xil jinoyat tarkibi bo'yicha turlicha jazo tayinlanishi, yengillashtiruvchi va og'irlashtiruvchi holatlarning turlicha talqin qilinishi hamda alternativ jazolarning yetarli qo'llanilmasligi adolatga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Shu bilan birga, sud qarorlarining qayta ko'rib chiqilishi va ayrim pretsedentga yaqin yondashuvlar adolatni qisman ta'minlashga xizmat qilmoqda. Ilmiy yondashuvga ko'ra, ushbu muammolarni bartaraf etish uchun jazo tayinlash tizimini standartlashtirish, qarorlarni asoslash talablarini kuchaytirish, raqamli tizimlarni joriy etish hamda sud amaliyotida shaffoflikni oshirish zarur hisoblanadi. Bu esa

subyektivlikni kamaytirib, yagona huquqiy yondashuvni shakllantirishga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, jazo tayinlashda adolat prinsipini ta'minlash — bu faqat huquqiy masala emas, balki ijtimoiy va axloqiy ahamiyatga ega kompleks jarayondir. Uning to'liq amalga oshishi sud tizimining shaffofligi, izchilligi va ilmiy asoslangan yondashuviga bevosita bog'liq bo'lib, adolatga asoslangan huquqiy davlat tamoyilini mustahkamlashda muhim o'rin tutadi. Demak, har qanday qonunga zid haddi harakat uchun yetarlicha jazolanishi bu adolatli desak mubolag'a bo'lmaydi. "Adolat kechiksa ham, adashmasligi kerak!"

1. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 3-modda
2. Nazorat ishi No2-18-46-20172 / Ish No4-2-18-46/20173

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi
Ozbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi
Lex.uz- O'zbekiston qonunchilik bazasi
Ijtimoiy tarmoq manbalari (xususan Open AI)